
«SOG'LOM HAYOT SARI 5000 QADAM» yurish marafoni o'tkazildi.

Bugun Toshloq tumanidagi markaziy o'yingohda aholi o'rtasida sog'lom turmush tarzini keng targ'ib qilish hamda ommaviy sportga jalb etish maqsadida "Sog'lom hayot sari 5000 qadam" shiori ostida piyoda yurish marafoni o'tkazildi.

Unda tumandagi ta'lim, tibbiyot hamda mahalla tizimi xodimlari, sportchilar va uyushmagan yoshlar, ko'plab tuman aholisi faol ishtirok etdi.

Shu kabi tadbirlarning doimiy ravishda o'tkazib borilishi aholining sportga ommaviy jalb etilishida va sog'lom turmush tarzini to'g'ri yo'lga qo'yilishida muhim omil hisoblanadi.

2024-09-21 16:42:59